



AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINIG INSON HAYOTI VA FAOLIYATIDAGI O'RNI

Mamajonov Qosimjon

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarinig inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga kirib borishi, axborot oqimining keskin ravishda ortib borishi, axborot almshinuvi, boshqaruv va texnologik jarayonlarning avtomatlashtirish ko'lamini kengayib borishi, umuman aytganda jamiyatni axborotlashuvi jarayonining jadallashib borishi, har bir mutaxassisdan informatika usul va vositalarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallagan bo'lishligini talab etilayotganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jamiyatni axborotlashuvi, bulutli hisoblash texnologiyalari, robototexnika komplekslari, texnologik jarayonlarning avtomatlashtirish, ma'lumotlar uzatish, sensor tarmoqlarni.

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЖИЗНИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: В данной статье рассматривается проникновение информационно-коммуникационных технологий во все стороны жизни и деятельности человека, резкое увеличение потоков информации, расширение сферы информационного обмена, автоматизация управленческих и технологических процессов, ускорение процесса информатизации общества в целом, информационных технологий от каждого специалиста дается информация о том, что требуется для освоения методов и средств информационных и коммуникационных технологий.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, информационное общество, технологии облачных вычислений, робототехнические комплексы, автоматизация технологических процессов, передача данных, сенсорные сети.

THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN HUMAN LIFE AND ACTIVITY

Abstract: In this article, the penetration of information and communication technologies into all aspects of human life and activity, the sharp increase in the flow of information, the expansion of the scope of information exchange, the automation of management and technological processes, the acceleration of the process of



informatization of society in general, the information technology from every specialist information is given that it is required to have mastered methods and tools, information and communication technologies.

Key words: Information and communication technologies, society information, cloud computing technologies, robotics complexes, automation of technological processes, data transfer, sensor networks.

KIRISH.

Axborotlashgan asrimizning bugungi kunida korxonalar, tashkilot va ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlariga tayangan holda mukammal avtomatlashtirilgan o'quv markazi yaratish va aholiga yetkazib berish, bunday tizimlarni yaratishda samarali usul va vositalarini ishlab chiqish masalalari juda dolzarb muammo hisoblanmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga kirib borishi, axborot oqimining keskin ravishda ortib borishi, axborot almashinuvi, boshqaruv va texnologik jarayonlarning avtomatlashtirish ko'lamini kengayib borishi, umuman aytganda jamiyatni axborotlashuvi jarayonining jadallashib borishi, har bir mutaxassisdan informatika usul va vositalarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallagan bo'lishligini talab etmoqda. U qaysi soxada ishlashidan qat'iy nazar, o'z vazifasini zamon talabi darajasida bajarishi uchun axborotga ishlov beruvchi vositalarni, ularni ishlatish uslubiyotini bilishi va ularda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Shu sababli bugungi kunda mustaqil Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub isloxoatlarning mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalari aniq belgilab olingan bo'lib, ushbu vazifalar orasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining bitiruvchilarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z kasbiy faoliyatlarida samarali foydalana oladigan darajada tayyorlash vazifasi alohida o'rin egallaydi.

Bugungi kunda bulutli hisoblash texnologiyalari deyarli barcha sohalarga kirib borayotganligini Respublikamizda qabul qilinayotgan qaror va farmonlar orqali ham bilishimiz mumkin. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmonini [1] keltirishimiz mumkin. Farmonda, bulutli hisoblash texnologiyalariga oid vatanimizda 2030 yilga qadar bajarilishi kerak bo'lgan bir qancha amaliy ishlar belgilab qo'yilgan bo'lib, ularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- 2021-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolar tomonidan tizim boshqaruvi, ma'lumotlar bazasi va "bulutli" platformani boshqarish, axborot xavfsizligini ta'minlash va boshqa talab yuqori bo'lgan yo'nalishlarda xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarining 50 foizgacha bo'lgan qismini qoplash tizimi joriy etildi;

- iqtisodiyot tarmoqlarida virtual va to'ldirilgan reallik, sun'iy intellekt, kriptografiya, mashina o'rganishi, katta ma'lumotlarni tahlil qilish va "bulutli"



hisoblash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish;

- “bulutli” hisoblashlar asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta'minlash;

- robototexnika komplekslari va odamlar o'zaro ta'sirining algoritmlarini ishlab chiqish, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari infratuzilmasini, o'rnatilgan sensorlar va sensor tarmoqlarni takomillashtirish, shuningdek, “bulutli” xizmatlarini taqdim etishning turli xil modellarini amalga oshirish uchun dasturiy ta'minot yaratish bo'yicha ilmiy ishlarni olib borish.

Bugungi kunda Respublikamiz ta'lim muassasalarida axborotlashtirish muassasa faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda va ularda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish masalasi qo'yilmoqda. Bu texnologiya ham o'uv markazlarida o'quvchilar ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va tezkor axborot manbaiga aylanadi. Uning vazifasi o'quv markazi tizimini avtomatlashtirish, ixtiyoriy ma'lumot turi bo'yicha tezkor qidiruvni amalga oshirish, tezkor xisobotlar olish va o'quv markazi axborot texnologiyalarini samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Axborotlashtirish (ingliz tilidan „Informatization“) — bu ko'p ma'noli atama bo'lib, ilg'or axborot texnologiyalari yordamida jamiyatda axborotdan foydalanish samaradorligini oshirish jarayonida, shuningdek, jamiyatning rivojlanishi va axborot jamiyatiga aylanishi jarayonida va postindustrial jamiyatning rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi[3]. Shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni.[4]

Filippin universiteti professori Aleksandr Florning fikricha, axborotlashtirish an'anaviy jamiyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar soxasida muammolar o'quv markazilarining ish faoliyatida axborot texnologiyalariga asoslangan zamonaviy uslublarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali malakali kadrlarning yanada bilim, ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish zaruriyatini taqozo etadi. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan o'quv markazlari avtomatlashtirilgan tizimini loyihalashtirish va yaratishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Yuqoridagi aytib o'tilgan fikrlar o'quv markazilarining ish faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan o'quv markazi avtomatlashtirilgan tizimini loyihalashtirish va yaratishni hamda o'quv markazlari uchun undan foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb masala ekanligini ko'rsatib turibdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Korxonalar va tashkilotlarda, o'quv markaz va boshqalarda axborot texnologiyalariga asoslangan zamonaviy dasturiy ta'minotlar yaratish bilan bog'liq juda ko'p turli-tuman adabiyotlar yetarli darajada ma'lum. Mazkur



dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar bo'limida keltirilgan barcha darslik va o'quv qo'llanmalar zamonaviy dasturiy ta'minotlarni yaratishga asos bo'ladigan adabiyotlar sanaladi.

Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki, aynan mana shu narsa butun jamiyatni axborotlashtirilishi uchun asos va muhim zamin bo'ladi.

Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan - texnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi.

Darhaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish — inson hayotining barcha jabhalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan bog'liq ob'ektiv jarayon xisoblanadi.

Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishiga, iqtisodning o'sishi xamda fan - texnika taraqqiyotining jadallashishiga xizmat qiladi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonini 5 asosiy yo'nalishga ajratish mumkin:

1. Mehnat, texnologik va ishlab chiqarish jarayoni vositalarini kompleks avtomatlashtirish.
2. Ilmiy tadqiqotlar, loyihalash va ishlab chiqarish jarayonlarini axborotlashtirish.
3. Tashkiliy - iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish.
4. Axoliga xizmat ko'rsatish soxasini axborotlashtirish.
5. Ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirish.

XULOSA.

Zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan dasturiy ta'minotlarni loyihalash va yaratish dasturchilarimizning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirganlik darajasiga, tajribasiga va mahoratiga bog'liq. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni bilish darajasi har xil, ko'pchilikda tajriba yetarli emas. Undan tashqari, taklif etilayotgan dasturlash vosita va ilovalarning ham turlari juda keng bo'lib, ularda tizimli holatga keltirish imkoniyati juda qiyin. Chunki avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining asosiy maqsadi, avvalo, korxonalar, tashkilot va muassasaning ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'lsa, ikkinchidan, muassasa kadr va xodimlarida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar bo'yicha malakalarini oshirish, muassasa ish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu maqsad yo'lida mamlakatimizda axborotlashtirish va kommunikatsiyalar rivoji bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Axborotlashtirish to'g'risida" Qonun va "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida PQ-117, "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish va rivojlantirish" to'g'risida PQ-1730 [2] va boshqa axborotlashtirish to'g'risidagi qaror va farmonlar mamlakatimizda axborotlashtirish masalalariga jiddiy qaralayotgani namunasidir.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son
2. O'zbekiston respublikasi Prezidentining "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730-son 2012-yil 21-mart.
3. Rogers, Everett M. (2000). «Informatization, globalization, and privatization in the new millennium». The Asian Journal of Communication. 10 (2): 71-92.
4. <https://advice.uz/uz/document/2452>